

THE CONCEPT OF ORGANIZING ETHNOGRAPHIC MUSEUM COMPLEXES UNDER THE OPEN SKY IN UZBEKISTAN ON THE EXAMPLE OF THE CITY OF TASHKENT

Razikberdiyev Murtazo Ismaildjanovich-Associate Professor, Department “design” of the National Institute of painting and design named after Kamoliddin Behzod

Annotation: an ethnographic museum organized under the open sky in the “Old City” gism in historical cities complexes will preserve unique osori-atikas for the future generation, in addition to the fact that their complex-plan organization will preserve the peculiarities of the national architectural tradition by domesticating our national traditions on the basis of modern experiences. nnotation: an ethnographic museum organized under the open sky in the “Old City” gism in historical cities complexes will preserve unique osori-atikas for the future generation, in addition to the fact that their complex-plan organization will preserve the peculiarities of the national architectural tradition by domesticating our national traditions on the basis of modern experiences. Increasing the Badi-aesthetic appearance of the city, it plays an important role in the rapid and balanced development of the country's economy, in the development of Tourism prosperity, which radically improved the quality of services to tourists.

Keywords: tourism, museum, design, old city, architecture, project, complex, historical city.

ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ МУЗЕЙ ПОД ОТКРЫТЫМ НЕБОМ В УЗБЕКИСТАНЕ КОНЦЕПЦИЯ СОЗДАНИЯ КОМПЛЕКСОВ НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА ТАШКЕНТА

Разикбердиева Муртазу Исмаилджановича-доцента кафедры “Дизайн” Национального института живописи и дизайна имени Камолиддина Бехзода

Аннотация: этнографический музей, организованный под открытым небом в ГИС” Старый город " в исторических городах комплексы гармонично сочетают наши национальные традиции с современным опытом, комплексно-планировочная организация сохраняет особенности национальных архитектурных традиций, а также сохраняет уникальные предания для будущих поколений. ннотация: этнографический музей, организованный под открытым небом в ГИС” Старый город " в исторических городах гармонично

сочетают наши национальные традиции с современным опытом, комплекснопланировочная организация сохраняет особенности национальных архитектурных традиций, а также сохраняет уникальные предания для будущих поколений. Повышая художественно-эстетический облик города, он играет важную роль в динамичном и сбалансированном развитии экономики страны, радикальном улучшении качества обслуживания туристов и развитии туризма.

Ключевые слова: туризм, музей, дизайн, Старый город, архитектура, проект, комплекс, исторический город.

O'ZBEKISTONDA OCHIQ OSMON OSTIDA ETNOGRAFIK MUZEY KOMPLEKSLARNI TASHKIL QILISH KONSEPSIYASI TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA

Razikberdiyev Murtazo Ismaildjanovich -Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Dizayn” kafedrası, dotsenti

Annotatsiya: Tarixiy shaharlardagi “eski shahar” gismidagi ochiq osmon ostida tashkil qilingan etnografik muzey komplekslar milliy an'analarimizni zamonaviy tajribalar asosida uyg' unlashtirib, kompleks-rejali tashkil etilishi milliy me'morchilik an'analarining o'ziga xos xususiyatlarini saqlab golishi bilan bir qatorda noyob osori-atiqalarni kelajak avlod uchun asrab-avaylaydi. Shaharning badiy-estetik qiyofasini oshirib, mamlakat iqtisodiyotini jadal va mutanosib rivojlantirishda, turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilab turizmni ravnaq toptirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: *turizm, muzey, dizayn, eski shahar, arxitektura, loyiha, majmua, tarixiy shahar.*

Tarixni anglashda uni kelajak avlodlarga qoldirishda muzeylar juda ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi tarixiy shaharlari turizm salohiyatini yanada oshirish, kelayotgan mehmonlarga yanada xizmat sifatini yaxshilash , milliy ma'daniy arxitekturamizning jozibadorligini yanada targ'ib qilishda ochiq osmon ostida tashkil gilingan etnografik muzeylar o'rni begiyosdir.

Mamlakatimizda turizm sohasi jadal sur'atlarda rivoj topayotgani bois, turizm komplekslar arxitekturasi qisman tahlil etilgan va o'rganilgan. Hozirda turizm majmualarining hajmiy tarxiy yechimi muammolari, kompleksning landshaft dizayn yechimini to'g'ri tashkil qilish masalasi va shu bilan bir qatorda majmua atrofida milliy ruhdagi zamonaviy arxitektura muhitini tashkil etish dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

Tarixdan ma'lumki, O'zbekiston Turon, Movaraunnaxr, Turkiston deya atab kelingan va «Buyuk ipak yo'li»da joylashib Sharq bilan G'arbni bog'lovchi, ularni iqtisodini, madaniyatini, san'atini, taraqqiyotini bog'lab turadigan bir makon bo'lgan.

«Buyuk ipak yo'li»ning vorisi sifatida O'zbekistonga ko'plab mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Italiya kabi davlatlar juda katta qiziqish bilan qaramoqda. Ular ajdodlarimiz me'ros qilib goldirgan muzeylarimizda saqlanayotgan noyob osori-atiqalarni ko'rish, qadimiy-tariximiz, boy madaniyatimiz bilan tanishish istaklarini bildirmoqdalar.

Buning misoli sifatida AQSHdagi Markaziy Osiyo muzeyi direktori, Pensilvaniya universitetining professori, doktor Fredrik T. Xiberg - «Amerika Qo'shma Shtatlarida qadimiy «Buyuk ipak yo'li»da joylashgan, uyg'onish davrida ham, o'rta asrlarda ham jahon taraqqiyotining, ilm-fan rivojining o'chog'i, buyuk allomalar makon topgan, boy tarixi, madaniyatga ega bo'lgan bugun ham katta ilmiy-iqtisodiy taraqqiyot imkoniyatlariga ega bolgan sizning O'zbekiston Respublikangizga hurmat, qiziqish juda kattadir», -deb yozadi Islom Karimovga yozgan xatida.

Shu boisdan O'zbekistonda 90-yillardan keyin ko'plab muzeylar mamlakatning turli joylarida o'z ishlarini boshladi, ko'plab muzeylar butunlay yangidan barpo etildi, boshqalari kapital tamirdan chiqarildi.

1999-yilda O'zbekistonda davlat tasarrufidagi muzeylar soni 81 taga yetdi, ulardan 15 tasi tarix muzeyi, o'lka shunoslik muzeylari soni 23 tani va 10 ta badiiy muzeylai, 20 ta memorial, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylarini tashkil etildi.

O'zbekistondagi 10 ta yirik shahar tarixiy shaharlar ro'yxatga olingan hisoblanadi masalan: Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qo'qon va boshqalar. Ayniqsa Samarqand juda ham tarixiy obidalarga boy shahar hisoblanib har yili juda ko'p xorijiy mehmonlar tashrif buyuradi.

Bugungi kunga kelib esa 350 dan ortiq muzey va muzey faoliyati bilan bog'liq ko'rgazma muassasalari mavjud. Madaniyat vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, ularning 90 tasi davlat muzeylaridir.

Ochiq osmon ostida etnografik muzey komplekslarni tashkil qilish g'oyasi birinchi bolib, Shvetsariyalik olim Charliz De Bonstten tomonidan 1790-yil oldinga tashlangan. Uning g'oyasi bo'yicha bunday muzeylarda haqiqiy tarixiy turar joy binolarini joylashtirish bilan birgalikda ularni ichgi va tashqi muhitida usha davrlarga hos holatni, uy jihozlari, mebellari, asvob anjomlar bilan saqlab qolish bo'lgan. Lekin u bu vaqt mobaynida Dany shahrida yashagan, ammo u taklif qilgan muzeyni "shoxona park" ya'ni shimoliy Zellandiyadagi bog'ga mo'ljallagan.

Undan keyinroq, 1867-yida O'slin shahriga yaqin yerda dehqonlar uylarini, yog'och konstruksiyali cherkovni olib kelib o'rnatishgan va muzey tashkil qilishga urinishlar bo'lgan. Yana, 1872-yilda Stok Golum shahrida etnografik muzey "severnii muzey" tashkil etildi. Aynan shu bog' muzey ichida 1890-yilda pedagog A. Gezelius xalq uchun, keng omma uchun mashhur "Skansen park" ni tashkil qiladi.

Bunday qoriqxonalar muzeylarni tashkil qilishni asosiy prinsipi quyidagilardan iborat: ma'lum u yoki bu shaharda alohida yer maydoni tanlab, butunlay, xech qayeri o'zgartirilmagan holda, butun boshli uylarni, jamoat binolarini, olib kelib o'rnatishdan iborat bolib, yana ana shu etnografik muzey qoriqxonalarga ma'lum bir kasb egalari, hunarmandlar kelib joylashganlar, ish vaqti tugagach, o'z uylariga ketishgan yoki shu yerni o'zida istiqomad qilishgan.

Xo'jalik xonalari va yashash xonalarida, xona ichidagi jihozlar o'sha qadimgi holicha qayta tiklashgan.

Yuqorida aytib o'tganlarimiz, hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Bunday qo'riqxonalar ayniqsa bayram kunlari gavjumlashgan. Chunki, bayram kunlarida ko'chalar, shaharcha sayilgohlarida, xonadonlar, savdo rastalarida milliy kuy navolar, raqslar, turli milliy o'yinlari va osh yer aholisiga hos qadimiy taomlar tayyorlashgan va tashrif buyurganlarni ham bularda ishtirok ettirishga harakat qilishgan. Muzeyni tashkilotchilari xalq ijodiyotini keng targ'ib qilishga harakat qilganlar.

Bu muzeydagi asosiy qurilmalar 59-ta kompleksdan iborat bo'lib, dehqonlar uylari, xo'jalik qurilmalari v.h.k bo'lib, ularning eng qadimiysi XVI-asrga borib taqaladi. Turar - joylar, ombor xonalar va boshqa qurilmalar mamlakatni har xil yerlaridan olib "ko'chirib" keltirilgan bo'lib, u 30 gektarni tashkil qilgan.

Undan tashqari "Skansen park" da tashrif buyuruvchilarni zeriktirib qo'ymaslik maqsadida, ko'ngil ochar o'yinlar tashkil etilgan va yana bu shaharchada kichik hayvonot bog'i tashkil qilingan. Keyingi yillarda turli mamlakatlarda shunga o'xshash etnografik muzey qo'riqxonalar barpo etila boshlandi.

Ruminiyadagi "Satuli" muzeyi o'ziga xos bo'lib, uni ajralib turadigan yeri, undagi eksponatlarning sonini ko'pligidadir. Muzeyda 70-ga yaqin ansambl bo'lib, u o'z ichiga 300-ta binoni qamrab olib, undagi dehqonlar buyumlari 2000 tadan oshadi.

1924-yilda Sobiq Sovet ittifoqida birinchi bo'lib, Latviya respublikasida, shunday go'riqxona ochilgan. Bu Riga shahrining markazidan 12 kilometr uzoqlikda joylashgan, u yam-yashil bog' ichida, Yugla daryosi bo'yida joylashgan.

Uning umumiy maydoni 97-gektarga yetadi.

Metodologiya va tadqiqot usullari Turar joy binolarining kelib chiqishi, xalq arxitekturasi sohasidagi nazariy va amaliy yutuqlarni har tomonlama tahlil qilishga asoslangan.

Sifatli tadqiqot metodologiyalarida ma'lumotlar ,manbalarni to'plash uchun keng tarqalgan turli xil usullar mavjud.

Toshkent shahrining markazida, "Chorsu" chorraxasida joylashgan "Shaxriston" maydoni hozirda Gulbozor mahallasi bo'lib, uning predmeti an'anaviy turar - joy binolari va xalq hunarmandlarining savdo rastalaridir. Shundan kelib chiqqan xolda Toshkent shahrining tarxii tarkibi Temuriylar davridan boshlab to shu kungacha bo'lgan xolatini arxiv materiallaridan ya'ni rus olimlarining va harbiylarning sovet tizimigacha bo'lgan davrdagi o'rgangan va chizgan xarita (karta) larini topib o'rganildi.

Abdumannop Ziyayev o'zining "Базары Ташкента" kitobida ta'kidlashlaricha X - XII asrlarda aynan "Chorsu" chorraxasida "Chorsu" bozoridan Buyuk Ipak Yo'li o'tgan. Aynan shu bozorning Janubiy gismida "Shaxriston" joylashgan bo'lib u ikki qismdan iborat bo'lgan, bular: 1. Ark va uning g'arbiy qismida joylashgan hunarmandlar uy joylari, ustaxonalari va savdo rastalaridir.

Savdo rastalari bilan shakllangan, shaharlar markazi va shaharlar markazini o'rab turuvchi, rabot (shahar chetidagi kichik shaharcha, daxa) larni bog'lab turuvchi, xarakterga ega bo'lgan ko'chalar, asosan savdo shaharlari bo'lib, Toshkent va Andijon shaharlarida keng tarqalgan.

Bu shaharlarda bozor maydoni, shaharning boshqa maydonlariga nisbatan ko'proq joy egallagan, bunga misol qilib Samarqandni yoki Buxoroni olishimiz mumkin. Toshkent shahrida 12-ta darvoza bo'lgan.

(XVI - XVII asr) Eski Toshkent qaysiki o'zining o'lchami bo'yicha kichkina bo'lgan shaharcha bo'lib, o'zining shaxristoniga ya'ni markaziga ega va savdo maydoniga ega bo'lib, bu davrga kelganda u, o'zining katta savdo markaziga ega bo'lgan, shaharga aylandi. Bu davrda shahar sezilarli darajada kengaydi. Uning markaziy qismidagi asosiy maydonni, bozor egallagan va uning asosiy markazida savdogarlar uchun alohida joy ajratilgan. Bulardan tashqari shahar markazida choyxonalar, oshxonalar, qushxona (qassob xona)lar va boshqa maishiy xizmat ko'rsatish rastalari uchun joylar ajratilgan.

"Toshkent shahri yirik savdo markazi bo'lgan" degan edi A.Geniy. - u markaziy Osiyo shaharlari, Rossiya va sharq mamlakatlari bilan savdo qugan.

Asosiy bozor, shahar markazida joylashgan bo lib, u o'zining xarakteridan kelib chiqqan xolda, alohida rastalardan iborat edi, ya'ni sotiladigan mollariga qarab, alohida rasta gatorlaridan tashkil topgan. Bunday savdo rastalar qatori 30-taga yaqin bo'lgan.¹

Boroltning fikri bo'yicha, X asrlarda Toshkentni Binket deb atalgan.

Shahar ikki qatorli devor bilan o'ralgan bo lib, uning tashqi devorida 7-ta darvoza bolgan. Ichki devorda esa 10-ta darvoza bolgan. Bular: "amir" darvozalari, "xogon" darvozalari va "xonagasir" darvozalaridir. Shahar markazidagi shaxriston 3-ta darvozaga ega bo lgan, bular: (Abdul Abbos, Kesh va Junayt) darvozalari.

Shariston markazidagi Arkda esa 2-ta daivoza bolgan, ulardan biri Shaxristonga olib chiqqan bolsa, ikkinchisi Rabotga olib chiqqan. Saroy va zindon Ark ichida joylashgan. Juma masjidi esa Arkdan tashqarida joylashgan. Bozor esa Arkga yaqin joyda joylashgan. Bozorning bir gismi, shaxristonda joylashgan bo'lib, bir qismi Rabotga ulanib ketgan.

Boz suv anxori Toshkent shahrini shargidan g'arbigacha taxminan ikki gismga ajratgan. Bu ikki qism ham o'z navbatida yana ikki gismga bo'lingan, bular Shayxontohur, Sebzor, Ko'kcha va Beshyog och daxalaridir. Shahar paxsa devorlar bilan o raglan bolib, unda 12-ta darvoza bolgan va ikkita oddiy o'tadigan joy bolgan. Hai-bir gisida uchtdan darvoza bo'lgan.

Birinchi gismda- quyidagi darvozalar bolgan: Labzak, Taxtapul va Qorasaroy darvozalari. Ikkinchi qismda- quyidagi darvozalar bolgan: Sag'bon, Chig'atoy va

¹ Лавров Виталий Алексейвич. "Градостроительные культуры Средне Азии".: Moskva - 1950. 110- 112 b. Bob oldi -3; 5- bob

Ko'kcha darvozalari. Bular Bozsuvni bir tomonida bo'lib, keyingi qismlar bilan, bu qismlar o'rtasidan Sag'bon ko'chasi kesib o'tgan.

Uchinchi qismda- quyidagi darvozalar bo'lgan: Komolon, Samargand va Beshyog'och darvozalari.

Tortinchi qismda- quyidagi darvozalar bolgan: Qo'ymas, Qo'gon va Qashqar darvozalari, bu gismlar o'rtasidan Beshyog'och ko'chasi kesib o'tgan.

Katta va asosiy bozor shahar markazida joylashgan.²

Toshkent shahri bir garaganda ingichka ilon izi va boshi berk ko shalardan iboratligi sezilib turadi, buni ayniqsa shaharni xarbiy tapografik plan kartasida korsa bo ladi. Shaharni haqiqiy ko'rinishini 1916-1917 yillarda "25-soajen" mashtabga ega bo'lgan xo'jalik planda ko'rish mumkun (*baxolovchi statistic byuro tomonidan tayyorlangan Toshkent shahrining 1911-1914 yillarda qurilgan kartasi, 1912-1915 yillarda undan ham kattaroq nashtabda gilingan. Shaharning bunday planirofkasi yani, ko'chalarning shahar markazidan tashqariga radial xolqa targashi Moskva shaharining planirfkasiga o'xshab ketadi.³

Ochiq osmon ostidagi etnografik muzey uchun eng qulay, mos va to'g'ri joy - bu Toshkent shahrining hozirgi "Chorsu" maydonida joylashgan va asosan yaxshi saqlanib golgan "Shaxriston" hozirgi Gulbozor mahallasi deb hisoblanadi.

Shariston hozirda besh - yetti gektaga yaqin bo'lgan maydonga ega bo lib, Shimoliy tarafidan "Chorsu" bozori, G'arb tarafidan "Zarqaynar" ko'chasi, Janubiy tarafidan "Navoiy" ko'chasi bilan chegaralangandir.

Hozirda Shaxriston maydonida tarixiy yodgorliklardan "Gulbozor" masjidi saqlanib golgan. Jome' masjidi buzilib, tashlanib gaytadan, qurilgan. Masjidning Shimoliy tarafida bo'lgan "Xo'ja - Ahror Valiy" madrasasi buzilib ketgan, ammo uning poydevoridan goldiqlar saqlanib golgan. Undan tashqari "Shaxriston" ning sharqiy tarafida Ko'koldosh madrasasi saqlanib qolgan va qayta ta'mirlangan.

² A.I. Dobrosmislov; "Ташкент В прошлом и настоящем" istoricheski ocherk.:T-1912; (42-43-48 b.)

³ N.G.Mallitskiy; "Tashkentskiy maxallya I mavze". :T-1927

Tarixiy manbaalardagi va olimlarning olib borilgan izlanishlaridagi (8 - 20 asrlar) kartalarni o'rganish natijasida va Shaxristonning hozirgi tarxiy xolatini o'rganish natijasida ular orasidagi tafovut juda kam. Bu holat ayniqsa Shaxristondagi asosiy ko'chalarda kuzatiladi. Lekin, bu yerdagi turar - joy binolari albatta vaqt o'tishi bilan bir necha o'n va xatto yuz marotaba o' zgargan bo lishi mumkin. Bularga asosiy sabablardan biri: vaqt o'tishi bilan har bir xonadonda oilaviy o'zgarishlar natijasida katta hovlilar bo'linib alohida kichkina xovli va shunga yarasha uylarning paydo bo'lishi, vaqt ta'sirida uylarning eskirishi, zil - zilalar bo'lib turishi v.h.k. shunga qaramasdan Shaxriston maydonida tarixiy, arxitekturaviy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan turar - joy binolari bor, va ular bu yerdagi jami uylarning taxminan 10 - 15 %ni tashkil qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. 2012-yil 12-mart (N° P-3806) sonli qarori
2. Лавров В. А. "Градостроительные культуры Средне Азии".: Moskva - 1950.
3. Добросмислов А. И. "Ташкент В прошлом и настоящем". Ташкент, 1912
4. Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Ростовцев О.М. Археологические памятники Ташкентской области. Ташкент: издательство «Фан», 1973
5. Древний Ташкент. Ташкент: издательство «Фан», 1973
6. Зияев А. «Базары Ташкента в прошлом и настоящем историко архитектурный очерк». Ташкент: издательство «Санъат», 2008
7. Мукминова Р.Г., Филанович М.И. Ташкент на перекрестках истории. Ташкент: «Фан», 2001
8. Нильсен В.А., Манакова В.Н. «Архитектурный декор памятников Узбекистана». Ленинград: «Стройиздат» Ленинградское отделение, 1974.
9. Ismailджанович R. M. The place of landscape architecture, traditional landscape and horticulture in urban planning. – 2021.

10. Isakova M. B. The Concept and Principles of Universal Design //INTERNATIONAL JOURNAL ON ORANGE TECHNOLOGY.
11. Razikberdiev, M. . (2025). TRANSPORT KESISHMASINI TURLI SATHLARDA LOYIHALASH . *Art and Design: Social Science*, 5(04), 37–46. <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-07>
12. Sultanova M.F. (2025, май 17). MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALARINING SHAKLLANISHI, TARIXI, BUGUNGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15448793>
13. Sultanova, M. F. (2025). TOMOSHA BINOLARIDA AKUSTIK HUSUSIYATLAR VA UNING TOMOSHABINLARGA PSIXOLOGIK TA'SIRI. *Art and Design: Social Science*, 05(02), 5–8. <https://doi.org/10.37547/ssa-v5-02-02>
14. Xodjayev A. A., Mannopova N. R., G'Aniyeva D. A. ZAMONAVIY SAN'AT TURLARI, UNDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR, IMKONIYATLAR VA USULLAR //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-1 (131). – С. 651-654.
15. Faxrizoda F. F., Mannapova N. R. RANG VA SHAKL UYG'UNLIGI //ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ. – 2024. – №. 49-3.
16. <http://www.lex.uz>
17. <http://www.admin.ru>
18. <http://www.statistika.uz>